



AYIRMALI TAQQOSLASHGA DOIR MASALALAR.

Ergasheva Matluba Burxonovna. JDPU. Katta o'qituvchisi

Anotatsiya: O'zbekistonda ta'limga rivojlantirish dasturida bilimga yo'naltirilgan ta'limdan rivojlantiruvchi ta'limga o'tish zaruriyati ta'kidlanadi, bu ta'lim islohoti, insonga yo'naltirish bilan bog'liq. O'zbekistonda Davlat ta'lim standarti doirasida belgilangan asosiy ta'lim tizimi maqsadlaridan biri "bolalar va yoshlarni har tomonlama va o'z vaqtida rivojlantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, mustaqil ta'lim ko'nikmalari, shaxsning o'z mavqeini aniqlay olish ko'nikmasini shakllantirish" hisoblanadi. Shunday ekan, boshlang'ich matematika kursida ayirmali taqqoslashga doir masalalarini qarab chiqish bu hilda tuzilgan masalalar bilan tanishish amaliy mashqlar bajarishdan boshlanadi.

Tayanch so'zlar: ayitmali, masalalar, ayirmali taqqoslash

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston strategiyasi huddi shunday hayotbaxsh xusisiyat kasb etmoqda, xalqimizni yorug' maqsadlar yo'lida birlashtirib turadigan yaxlit ma'naviy asos va mezonga aylanib bormoqda.

O'z kuch imkoniyatlarimizga bo'lgan ishonch bizni Yangi O'zbekistonni barpo etish va Yangi Uyg'onish davri poydevorini yaratishdek ulug' maqsad yo'lida birlashtirib yanada kuchli mustahkam qilmoqda.

O'zbekistonda ta'limga rivojlantirish dasturida bilimga yo'naltirilgan ta'limdan rivojlantiruvchi ta'limga o'tish zaruriyati ta'kidlanadi, bu ta'lim islohoti, insonga yo'naltirish bilan bog'liq. Ozbekistonda Davlat ta'lim standarti doirasida belgilangan asosiy ta'lim tizimi maqsadlaridan biri "bolalar va yoshlarni har tomonlama va o'z vaqtida rivojlantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, mustaqil ta'lim ko'nikmalari, shaxsning o'z mavqeini aniqlay olish ko'nikmasini shakllantirish" hisoblanadi .

Shunday ekan, boshlang'ich matematika kursida ayirmali taqqoslashga doir masalalarini qarab chiqish bu hilda tuzilgan masalalar bilan tanishish amaliy mashqlar bajarishdan boshlanadi. O'qituvchi bolalardan parta ustiga 7 ta qizil doiracha va ulardan pastroqqa 10 ta ko'k doiracha qo'yib chiqilishni buyuradi. O'qituvchining o'zi ham katakli tahtacha ustiga doirani shunday qilib qo'yadi. So'ngra u «hozir biz bittadan qizil va bittadan



ko'k doirachani olib tashlaymiz. Tayyorlaning, bitta qizil bitta ko'k doirachani olib tashlang» deydi(o'zi ham olib tashlaydi) yana bittadan qizil va ko'k doirachani olib tashlang (ortiqcha ko'k doirachalar qolgunicha ish shu xilda davom ettiriladi) «Nima uchun ko'k doirachalar qoldi?» (Ular ko'p edi) «Qancha ko'p edi?» (uchta) «Buni qaerdan bildingiz? (uchtasi ortib qoldi.) «Qaysi doirachalar kam edi? Nega?» (Ular qolmadi) Qizil doirachalar kam edi? (uchta) «To'g'ri bolalar. Agar ko'k doirachalar qizil doirachalar ko'k doirachalardan uchta ortiqcha bo'lsa,unda qizil doirachalar ko'k doirachalardan shuncha kam bo'ladi. Qizil doirachalar uchta kam ekan». Narsalar ustida bir qancha amaliy ishlar qilinganidan so'ng daftar bilan ishlashga o'tiladi. Bitta satrga 5 ta uchburchak ikkinchi satrga esa 3 ta kvadrat chizing. Bitta uchburchak va bitta kvadratni ustiga chizib o'chiring. Qanday shakllar o'chirilmay qoldi? Nega? (ular ko'p) Qancha ko'p? Qaysi shakllar kam? Qancha kam? Yana birinchi satrga 5 ta uchburchak ikkinchi satrga 3 ta kvadrat chizing. Ustiga chizib o'chirmay turing qaysi shakllarning ko'pligini, nechta ko'pligini aytib berish mumkinmi? Buni qaysi amal bilan bilish mukin? (ayirish bilan) Qaysi sondan qaysi sonni ayirish kerak? (Kattasidan kichigini) Bunda qaysi shakllar ko'p? Qancha ko'p? Qaysisi kam? Qancha kam?

Endi bunday ish qilamiz. Bir satrga 6 ta doiracha ikkinchi satrga esa 9 ta to'g'ri to'rburchak chizing.

(O'qituvchi ham doskaga chizadi)

Endi biz o'chirmasdan turib qaysi shakllar ko'p va qancha ko'p qaysi shakllar kam va qancha kam ekanini aniqlashimiz kerak. Bizga kerakli narsani aniqlaganimizni ko'rsatish uchun matematikada alohida ishora bor qarang u mana bunday yoziladi.

Belgi yoniga o'sha belgi nimaga mo'ljallangan bo'lsa shu vazifa bajarilishi kerakligini ko'rsativchi «x»xarfi qo'yiladi. Bu belgida ikkita strelka bor. Ustki strelka doirachalarni to'g'ri to'rburchaklar bilan taqqoslash kerakligini ko'rsatadi. Yani doirachalar to'g'ri to'rburchaklardan ko'pmi, kammi qancha ko'p yoki kam?

Ostki strelka to'g'ri to'rburchaklarni doirachalar bilan taqqoslash lozimligini ko'rsatadi. Ya'ni to'g'ri to'rburchaklar doirachalar ko'pmi,kami,qancha ko'p yoki kam?



Biz ikki marta: bir narsani ikkinchisi bilan ikkinchisini esa birinchisi bilan taqqoslashimiz lozim. Shu masalani yechaylik. Ustki strelkaga qaraymiz. Doirachalarning ko‘p yoki kamligini, qancha kamligini qanday bilamiz? (9-6=3. Uchta kam.) Ostki strelkaga qaraymiz. To‘g‘ri to‘rtburchaklar ko‘pmi kami? Qancha ko‘p? Qanday bildingiz? (9-6=3.) Biz nechta savolga javob berdik? (2 savolga) Nechta amal bajarish kerak(1 ta) Bundan chiqdiki ma’lum qatordagi narsalarning ko‘p yoki kamligini bilish uchun ko‘p sondan kam sonni ayirish kerak, ekan-da. Bolalarga ayniqsa shuni uqtirish kerakki ikki miqdorni taqqoslash mumkin bo‘lishi uchun, ulardan xar biri nimaga tengligini (birinchisidan qancha-yu ikkinchida qancha ekanini) bilish zarur.

3. Shundan so‘ng sinfda quyidagi masalalar yechilishi lozim:

a) «Olimjonda 10 ta. Toxirda esa 8 ta yong‘oq bor. Kimda yong‘oq ko‘p? Nechta ko‘p? Kimda kam? Nechta kam?»

Kimda yong‘oq ko‘pligini darrov aytish mumkinmi? Nima uchun? Qancha ko‘p? Uni qanday bildingiz? Kimda yong‘oq kam ekanini darrov bilish mumkinmi? Nega (8<10). Qancha kam. Qanday bildingiz?

b) «Ikki pioner 62 kg paxta terdi. Birinchisi 28 kg terdi. Birinchi bola, ikkinchidan necha kilogramm kam paxta terdi?»

Masala razbor qilinadi. Gap kimhaqida boradi? (Ikki pionerhaqida.) Yozamiz: Bolalar nima qildilar? (Paxta terdilar.) Birinchi pioner qancha paxta terdi? (28 kg). Ikkinchi bola-chi? (Bilmaymiz.) Yozib qo‘yamiz.

I – 28 kg

II – ?

Masalada yana qanday son berilgan. (62 kg.) Bu son nimani bildiradi? (Pionerlar birligida 62 kg paxta terganini.) Bu shartni qanday yozish kerak? (Bir va ikki sonlari yoniga katta qavs va sonni yozish kerak.)

$$\left\{ \begin{array}{l} 62I - 28 kg \\ \end{array} \right.$$



II – ?

Masalada nimani aniqlash kerak? (Birinchi bola ikkinchi boladan qancha ko‘p paxta terganini.) Masalada buni qanday belgilash kerak? (Taqqoslash ishorasi va noma’lum «x» qo‘yish kerak.)

Buni yozamiz:

$$\left. \begin{array}{l} 62 \text{ kg} \\ - 28 \text{ kg} \\ \hline \end{array} \right\} \text{ II - ?}$$

Masalaning shartini aytib bering. Masalada qo‘yilgan savolga darrov javob berish mumkinmi? (Yo‘q.) Nega? (Biz ikkinchi bolaning qancha paxta terganini bilmaymiz.) Buni darrov bilish mumkinmi? Qanday qilib? (62 kg dan 28 kg ni ayirish kerak.) Nega? (Chunki ular ikkalasi birgalikda 62 kg paxta tergan, birinchi bola esa 28 kg tergan demakk, qolganini ikkinchi bola tergan bo‘ladi, ayirib, qolganini topish kerak.) [Yozamiz:(62-28)]. Ayirmani qavs ichiga olamiz. Endi masaladagi savolga javob bera olamizmi? Javob bera olamiz. Qanday qilib? (Masalada aytishicha birinchi bola kam tergan, demak ikkinchi bolaning tergan paxtasi. ($62-28$) ayirmadan 28 ni olamiz va masalaning javobini topamiz.) Masala javobini «x» bilan belgilanganidan mana bunday yozish mumkin:

$$(62 - 28) - 28 = x$$

Formulaning yechimi:

$$(62 - 28) - 28 = x$$

$$(62 - 28) - 28 = x$$

$$34 - 28 = x$$

$$x = (62 - 28) - 28$$

$$6 = x$$

$$x = 34 - 28$$

$$x = 6$$

$$x = 6$$

Javob: 6 kg kam.

Javob: 6 kg kam

(30 rasm)



Masalani qisman mustaqil yeching. Qaysi shoxda paxta chanog‘i ko‘p? Nima uchun siz shunday deb o‘ylaysiz?

(Agar biz 16 dan 4 ni ayirsak, 4 dan ko‘p qoladi.) So‘ngra masalani o‘quvchilar o‘zlarini yechadilar. Mana bunday qo‘sishimcha topshiriq berish mumkin: Birinchi satrga yuqoridagi shoxda nechta chanoq bo‘lsa shuncha doiracha, ikkinchi satrga esa, pastki shoxda nechta chanoq bo‘lsa, shuncha doiracha chizing. Bir vaqtida ikkala satrdan bittadan doiracha ustida chizib o‘chiring. Qaysi satrda doirachalar ko‘p? Nechta ko‘p ekanini sanang. Masala javobi bilan solishtiring.

4. Bolalarga mustaqil yechish uchun masalalar beriladi.

a) Bolalar boqchasiga 35 kgolma va nok olib kelindi. Olib kelingan nok 13 kg. Nokka qaraganda necha kilogramm ko‘p olma olingan?

(Rasm)

g) Quyidagi savollarga masalalar tuzing.

1..... dan necha metr baland?

2.Olinganidan necha doira ortib qoldi?

Bu masalalarni qanday tuzish kerak? Birinchi masalada qanday narsalarning balandliklarini solishtirish mumkin? Ikkita bolaning bo‘yini solishtirish mumkinmi? Nega mumkin emas? (Masalada necha metr baland deb so‘ralyapti.) Demak, biz ancha baland bo‘lgan ikki narsani olishimiz shart. Maktabga kelayotganingizda qanday baland narsalarni ko‘rasiz? (uylar, daraxtlar, simyog‘ochlar.) Yaxshi ana shularni solishtiramiz. Taqqoslash uchun ulardan qaysilarini olaylik? (Daraxt, uy.) Shu joyning sharoitiga qarab (ko‘p qavatli yoki bir qavatli uylar), o‘qituvchi narsalarning taxminiy balandliklarini aytib beradi.

Ikkinci savolga doir masalada nima olinishi lozim? Un, bug‘doy, guruch olib bo‘ladimi? Nega bo‘lmaydi? (Donalab olinishi kerak.) Qanday narsalarni donalab olish mumkin? (Konfet, pryaniklar va hokazolar.) Masalani nima haqida tuzaylik? Konfetlar



haqidami? U qaysi joyda turibdi? (Vazada, tarelkada va hokazolarda.) Necha dona? (10 ta) Ko‘p oldimi yoki kam? (kam) Nega? Chunki masalada olingandan qoldirilgani necha dona ko‘p deb so‘ralyapti? To‘g‘ri. Kam oling. Necha dona olasiz? (1, 2, 3, 4.) Endi masala shartini gapirib berish qiyin emas. Bunday kollektiv mulohazadan so‘ng bolalar mustaqil ravishda albatta bir necha masala tuzadilar.

1) Bor edi – 47 Ketdi – 9 Qoldi - ?	1) Bor edi – 18 Ishlatildi - ? Qoldi – 6
2)	2)

(Rasm)

Bunday kartochkalardan bolalar o‘tilgan materiallar bo‘yicha masalalar yechganda foydalanadilar.

Hulosa qilib aytganda o’quvchilar mustaqil ravishda albatta masala tuza oladilar va o‘tilgan mavzular bo‘yicha masala yechganda faydalanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev.”Yangi O‘zbekiston strategiyasi”.Toshkent.O‘zbekiston nashriyoti.2021 yil.
2. Levenberg. “Matematika o’qitish metodikasi” 1985yil
- 3.